# OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI

*Abdulxamidova Nodira Abdurashitovna*
*Oriental universiteti "Biznes va boshqaruv" kafedrasi o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi*
*ORCID: 0009-0002-7535-3057*

**Annotatsiya.** Yangi O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish globallashuv va urbanizatsiya sharoitida iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikning asosiy omilidir. Ushbu soha aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, yashash darajasini oshirish va bandlikni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Mazkur tezis ilmiy manbalar asosida yozilgan bo'lib, oziq-ovqat tizimining jamiyat va iqtisodiyotga ta'sirini baholaydi. Natijada, barqaror rivojlanish uchun tavsiyalar beriladi. O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari hamda uning milliy va global miqyosdagi ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar**. Ijtimoiy-iqtisodiy mohiyat, yalpi ichki mahsulot, logistika, chakana savdo, oziiq-ovqat mahsulotlari, ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy.

**Abstract:** Food production in the new Uzbekistan is a key factor in economic development and social stability in the context of globalization and urbanization. This sector plays an important role in ensuring food security of the population, increasing living standards, and supporting employment. This thesis is written on the basis of scientific sources and assesses the impact of the food system on society and the economy. As a result, recommendations for sustainable development are given. The social and economic aspects of food production in Uzbekistan and its significance at the national and global levels are highlighted.

**Keywords:** Socio-economic nature, gross domestic product, logistics, retail, food products, production, socio-economic.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati, logistika va chakana savdo tarmoqlarini o'z ichiga oluvchi murakkab tizim hisoblanadi. U quyidagi asosiy iqtisodiy funksiyalarni bajaradi, yalpi ichki mahsulot (YaIM) hissasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, ko'plab davlatlarda YaIMning muhim qismini tashkil qiladi. "Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish hamda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtiruvchilarning kooperativlarini ixtiyoriy ravishda tashkil etish va rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha maqsadli dasturni qabul qilish, oziq-ovqat mahsulotlari qo'shilgan qiymatini ko'paytirish va yo'qotishlarni kamaytirish maqsadida qayta ishlash korxonalari "kooperatsiya-klaster"

usulidagi aloqalarni rivojlantirish1.”kabi bir qator topshiriqlarni rejalashtirish ko‘zda tutilgan.

Bugungi kunda iqtisodiyotda bandlikni taminlashda oziq-ovqat ishlab chiqarish va unga bog‘liq tarmoqlarda millionlab ishchilar mehnat qilmoqda. Ayniqsa, qishloq hududlarida bu soha aholining asosiy daromad manbai hisoblanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish orqali davlatlar yuqori valyuta tushumiga ega bo‘ladi, bu esa milliy iqtisodiyotni mustahkamlashga va mamlakat eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari inson hayotining asosi bo‘lib, ularning barqaror va sifatli ta’minoti quyidagi ijtimoiy vazifalarni bajaradi.

1. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda aholining to‘laqonli va sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash orqali sog‘liqni saqlash, bolalar o‘sishi, ishchi kuchining samaradorligi kabi omillar ijobiy ta’sirga ega bo‘ladi.

2. Aholining ishsizligini kamaytirishda mahalliy oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash orqali past daromadli qatlamlar uchun ish o‘rinlari yaratiladi va ijtimoiy tengsizlikni kamaytiradi.

3. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish orqali qishloq joylarida hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Oziq-ovqat ishlab chiqarish O‘zbekistonning sanoat sektori tarkibida sezilarli o‘rin tutadi. 2024-yilning yanvar-sentyabr davrida iqtisodiy o‘sishning sanoatdagi umumiy ulushi 14,1% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 104,6% ni tashkil qilgan.

2017-2022-yillarda oziq-ovqat mahsulotlarining ishlab chiqarilishida dinamik o‘sishga erishilgan jumladan un, shakar, sut, kolbasa, makaron hamda margarin kabi mahsulotlarda ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan. Ushbu davrda margarin ishlab chiqarish 34% ga, un maxsulotlari ishlab chiqarish 32% ga oshgan2.

Meva va sabzavot yetishtirish, qayta ishlash sohasida zamonaviylashtirish va eksport salohiyati hajmi oshmoqda jumladan, o‘simlik moyi, tomat pastasi, mayiz va quritilgan mevalar ishlab chiqarishda O‘zbekistonning xalqaro salohiyati ortib bormoqda.

Ushbu sohada bozor infratuzilmasi jadal rivojlanmoqda. Ichki bozorlarda meva – sabzavotni qayta ishlash, yog‘-moy, go‘sht-sut va boshqa sanoat tarmoqlarini ishlab chiqaruvchi 200 ga yaqin korxona faoliyat yuritmoqda.

Oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida korxonalar soni, ishlab chiqarish hajmi va eksport ko‘rsatkichlari sezilarli darajada o‘sdi. Natijada, axolining bandligi 122% ga, korxonalar soni 224% ga, eksporti esa 336% ga oshgan. Aholining oziq-ovqat ta’minotida 2019-yilda oziq-ovqat eksporti 2 baravarga oshdi. Yillik ishlab chiqarishda 10 mln tonnadan ortiq sabzavot, 17 mln. tonnadan ortiq boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilishiga erishildi.

Aholi jon boshiga xarajatlar bo‘yicha sabzavotlar ishlab chiqarish 300 kilogrammga, kartoshka maxsulotlari 75 kg, uzum 44 kg ishlab chiqarilmoqda. Bu iste’mol maxsulotlari me’yorlarining uch baravariga to‘g‘ri keladi3.

---

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom oziqlanishni ta’minlashning 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiyasi

2 https://Stat.uz ma’lumotlari asosida tuzilgan

3 https://mineconomy.uz

Shu bilan birga ushbu sohada bugungi kunda ayrim muammolar ham mavjud bo‘lib, bular quyidagilarni tashkil etadi:

-resurslardan foydalanishdagi cheklovlar bular sug‘orish tizimlarining eskirganligi, ekologik buzilishning davom etishi, iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligi salmoqli tahdidi bilan bog‘liqdir;

-innovatsiyalar va xarajatlarni boshqarish – raqamli texnologiyalar, blokcheyn, AI, robotlashtirishning joriy etilishi orqali samaradorlikni ko‘tarish zarur hisoblanadi1.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda istiqbolli yo‘nalishlar ham mavjud bo‘lib, ular quyidagilar bilan ifodalanidi:

-eksport va bozorlarni kengaytirish – bu sohada sifat standartlarini oshirish, mahsulotlarni diversifikatsiya qilish, agro-klaster tizimi joriy etish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish orqali eksport salohiyatini oshirish2;

Ekologik barqarorlikni ta’minlash – bunda organik mahsulotlar ishlab chiqarish, ekologik toza texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash orqali sanoat rivojlangan yo‘nalishga aylantirishdan iborat3.

Bularning barchasi ushbu sohada innovatsion yondashuvlar, ekologik barqarorlikka asoslangan ishlab chiqarish va xalqaro hamkorlik zaruratini yuzaga keltirmoqda. Oziq-ovqat ishlab chiqarishni raqamlashtirish, aqlli qishloq xo‘jaligi, biotexnologiyalar kabi sohalarni jadal rivojlantirish istiqbolli yo‘nalishlar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish nafaqat iqtisodiy jihatdan mamlakat barqarorligini ta’minlaydi, balki ijtimoiy jihatdan aholining turmush darajasini yanada yaxshilaydi. O‘zbekistonda bu tarmoqning salohiyati davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, samarali investitsiyalar va innovatsiyalarga tayanadi. Rivojlangan davlatlarda samaradorlik yuqori, ammo tengsizliklar mavjud, rivojlanayotganlarda esa xavfsizlik va innovatsiyalar muhim. O‘zbekistonda davlat siyosati orqali ishlab chiqarishni oshirish kerak. Kelgusida raqamli transformatsiya, avtomatlashtirish va ekosanoat modellarini keng joriy qilish va ilmiy tadqiqotlar orqali barqaror rivojlanishni ta’minlash tavsiya etiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom oziqlanishni ta’minlashning 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiyasi.

1. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, “2024-yillik statistika to‘plami”, Toshkent, 2025-yil. lex.uz›docs/6391176

3. https://mineconomy.uz

4. R.Shukurov “O‘zbekistonda oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish holati tahlili” Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot (O‘zbekistondagi ilmiy jurnal) 2025-yil.

1 R.Shukurov “O‘zbekistonda oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish holati tahlili” Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot (O‘zbekistondagi ilmiy jurnal) 2025-yil.

2 M.Yusupov, G.Ismoilova. “Agrosanoat klasterlarini oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi ahamiyati va rivojlantirish mexanizmlari.” Eurasian journal of academic research, 2(8), (2022).

3 I.Umarov “Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik samaradorligini baholash uslublari”/ “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, 2011

5. I.Umarov “Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik samaradorligini baholash uslublari”/ “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, noyabr, 2011-yil.

6. Sh.Rahimov “Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarishning iqtisodiy ahamiyati”/ Ракамли иқтисодиёт, 2025-yil.

7. M.Yusupov, G.Ismoilova. “Agrosanoat klasterlarini oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi ahamiyati va rivojlantirish mexanizmlari.” Eurasian journal of academic research, 2(8), (2022-yil).